

Journal of New Century Innovations

VOLUME

45

ISSUE-3



*Journal of new
century innovations*

AREAS

Exact and natural sciences

Pedagogical
sciences

Social sciences
and humanities

Engineering and
Medical Sciences

ISSN (p): 2181-3671
ISSN (e): 2181-368X



Google
Scholar



newjournal.org

**BUXORO VILOYATI SHAROITIDA KARTOSHKA
HOSILINI YIG'ISH VA SAQLASH**

Hakimova Nodira Xayrilloyevna

Buxoro davlat universiteti

Agronomiya va biotexnologiya fakulteti

b.f.f.d., dotsenti

Sodiqov Davron Bahron o'g'li

Buxoro davlat universiteti,

Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo'yicha)

yo'nalishi 2 kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buxoro viloyati sharoitida kartoshkan hosilini yig'ish, saqlash usulari, rejimi va saqlashda qo'yiladigan talablar haqida ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: kartoshka tugunagi, to'qima, harorat, saqlash omborlari, yig'ish, saqlash usuli, yerto'la, harorat

Аннотация: В данной статье представлена информация о уборке, способах хранения, режиме и требованиях к хранению картофеля в условиях Бухарской области.

Ключевые слова: картофельный клубень, ткань, температура, склады хранения, сбор, способ хранения, погреб, температура.

Abstrakt : This article provides information about harvesting, storage methods, mode and requirements for storing potatoes in the conditions of the Bukhara region.

Key words: potato tuber, fabric, temperature, storage warehouses, collection, storage method, cellar, temperature.

Mamlakatimizda yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash miqdori yil sayin ko'payib bormoda. Bu aholini yil bo'yli arzon va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash imkoninini beradi.

O'zbekiston, xususan Buxoro iqlim sharoiti issiq mintaqaga hududiga taalluqli bo'lib, yil faslining har bir davrida haroratning o'zgaruvchanligi bilan ajralaib turadi, shuning uchun meva va sabzavotlarni saqlash davrida sifatiga ta'sir qiladigan hamma jarayonlarni va omillarni ko'ra bilish zarurdir.

Ko'pchilik hollarda kartoshka o'sib turgan palagi bilan kovlanadi. Hosilni mashinalar yordamida yig'ib olishni osonlashtirish uchun palak yuladigan kosikkalardan foydalaniladi. Kartoshka kovlangandan keyin dalaning o'zida bir necha soat davomida quritiladi va mayda-yirikligiga qarab saralanadi. Bunda vazni 25-30 g

dan yuqori bo‘lgan yirik va o‘rtacha tuganaklar tovar mahsulot sifatida ajratiladi. Mayda va shikastlangan tuganaklar yaroqsizga chiqariladi.

Yog‘inli kunlarda kovlangan kartoshka ombor yoki usti berk bostirmalarda 2-3 kun davomida quritiladi. Agar hosilni yig‘ish davrida qora sovuqlar tushib qolgudek bo‘lsa, sovuq urgan tuganaklarni aniqlash maqsadida kartoshka issiq binolarda bir necha kungacha saqlanadi. Bunda sovuq urgan tuganaklarning hamma qismi yoki ayrim joylari yumshab, ajralib qoladi.

Kartoshka kovlangandan keyin tuganaklar 20-30 kun davomida kuchli nafas oladi va vaznini ancha yo‘qotadi. Kartoshka qorong‘i joyda, havo namligi va harorat yuqori bo‘lgan sharoitda saqlansa, tuganaknnng shikastlangan qismida po‘kaksimon to‘qima hosil bo‘ladi. Bu to‘qima tuganakni nam yo‘qotishdan va uning ichiga mikroorganizmlar kirishdan saqlaydi.

Kartoshka 10°S dan past haroratda saqlanadi. Maksimal darajada saqlash uchun harorat esa 2 dan 4° S gacha, yerto‘la, o‘ra kabi qorong‘u va salqin joy bo‘lishi kerak.

Saqlash uchun sog’lom kartoshkalar ajratiladi. Xona harorati +3 +4°S iliq, havo almashib turadigan joy bo‘lishi kerak. Nazorat qilib turish uchun yashik va polkalar bo‘lgani ma’qul. Xona doimiy qorong‘u bo‘lishi kerak. Aks holda kartoshka tugunaklari ko‘k rangga o‘tib ketadi. Bu juda ham zaharli holatga o‘tish bo‘lib, oziq-ovqatga ishlatish mumkin emas. Agar qorong‘u joy ta’milnmasa, ustiga qora qog‘oz yoki boshqa biror narsa yopish kerak. Kartoshka saqlashga qo‘yilib, 5-6 hafta o‘tgandan so‘ng to‘liq qayta ko‘rikdan o‘tkazilib, zararlanganlari ajratib olinadi. Ko‘p massadagi kartoshkalar sog’lomlari ajratib olinib, 4 - 5 kun rosa quritilib, so‘ng o‘ralarda saqlanadi. Kartoshka katta miqdorda saqlanganda balandligi bir metrdan oshmagani ma’qul. Kartoshka chuqurlarda saqlanganda, qazilgan chuqurlik 1,5 metrgacha bo‘lib, yarmigacha kartoshka solinadi. So‘ng ustiga 10-15 santimetr quruq qum solib, ustidan poxol va boshqa xashaklar bilan 50 santimetr balandlikda berkitiladi.

Sabzavotlarni saqlashga quyiladigan talablar. Har bir oziq-ovqat mahsuloti texnik jihatdan tartibga solish hujjatlariga — sanitariya qoidalari, me’yorlari va gigiena normativlari, davlat standarti (GOST), tashkilot standartiga asosan saqlanishining muayyan talablari belgilangan.

Ya’ni, har bir mahsulot qoida va me’yorlarda belgilangan ma’lum harorat va havoning nisbiy namligida saqlanishi lozim.

Saqlash rejimi quyidagi muhim omillarni o‘z ichiga oladi: harorat, havo namligi, havo almashinushi, gaz muhiti va yorug‘lik tarkibi. Sabzavot mahsulotlarni saqlash jarayonida belgilangan havo haroratidan pasayib ketishi mahsulotlarning muzlab qolishiga sabab bo‘ladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 56 b.
2. O'zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jaligi ekinlari «Davlat Reyestri» Toshkent 2006y.
3. Bo'riyev X.Ch, Zuyev V.I., Qodirxo'jayev O.K., Muhamedov M.M. «Ochiq joyda sabzavot ekinlari yetishtirishning progressiv texnologiyalari» T., "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" 2002. (darslik).
4. Xodjimurodova N.R., Xakimova N.X., Turaeva N.N. Mikroorganizmy oroshaemых pochv Buxarskogo Oazisa. / QarMII Innovatsion texnologiyalar. Innovative technologies. Ilmiy-texnik jurnal - Qarshi. 2021/1(41)-son .B.72-76 .
5. Hakimova N.X., Tokhirov B., O'ktamova M., Akramova M. Mobile phosphorus and potassium in the soil determination / International Journal for Innovative Engineering and Management Research. www.ijiemr.org doi:10.48047/ijiemr/v10/104/111 .vol10 issue04, april2021. impact factor 7.819.
6. Kurvantaev R., Mazirov M.A., Xakimova N.X., Solieva N.A. Evolyusiya i progonoz razvitiya oroshaemых tipichnyx i svetlyx seryozomov na tretey terasse reki Zarafshan. / Vladimirskiy zemledelets. Nauchno-prakticheskiy jurnal. №4(98) 2021 DOI:10.24412/2225-2584-2021-4-14-20.
7. Hakimova N.X., Isroilova N.X., To'yumurodov Sh.T., Boboyev A.H. The importance of microorganisms in the saline soils of the Bukhara oasis. / Laboratorium WIEDZY Artur Borcuch Gospodarka I Innowacje Volume: 21/2022. Impact Factor: 8.01.
8. Hakimova Nodira Xayrilloyevna., Sodiqov Davron Bahrom o'g'li Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari . *Respublika onlayn ilmiy amaliy konferensiyasi BUXORO VILOYATIDA KARTOSHKANI EKISH USULLARI* VA TUP QALINLIGI
<http://pedagoglar.org/index.php/04/article/view/211>
9. Hakimova Nodira Xayrilloyevna., Sodiqov Davron Bahrom o'g'li BUXORO VILOYATI TUPROQ-IQLIM SHAROITIDA KARTOSHKAKA EKINI HOSILDORLIGINING SAMARADORLIGI Vol. 38 No. 1 (2024): ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ | Выпуск журнала № 38 | Часть-1 <https://www.newjournal.org/index.php/01/issue/view/306>
10. Salimova H.X. SUG'ORILADIGAN O'TLOQI TUPROQLARNING UNUMDORLIGI (G'IJDIVONTUMANI MISOLIDA). TURLI TUPROQ-IQLIMSHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISH VA O'SIMLIKLARNI HIMOYA QILISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman. Buxoro, 2023-yil 12-dekabr. B. 192-193

TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

| № | The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi | Page / Страница / Sahifa |
|-----------|---|---|
| 1 | METABOLISM REGULATOR IN PATIENTS WITH CHRONIC HEART FAILURE AND ANEMIA OF CHRONIC DISEASES | 3 |
| 2 | KIDNEY DYSFUNCTION IN CHRONIC HEART FAILURE | 13 |
| 3 | DIABETES MELLITUS with ARTERIAL HYPERTENSION | 20 |
| 4 | STRESS TESTING IN PATIENTS WITH CORONARY HEART DISEASE | 28 |
| 5 | CAUSES OF ARRHYTHMIA DURING PREGNANCY | 34 |
| 6 | BOSHLANG'ICH SINFLARDA DIKTANT YORDAMIDA O'QUVCHILAR YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISH | 42 |
| 7 | BOSHLANG'ICH SINFLARDA SIFAT SO'Z TURKUMINI O'RGATISH METODIKASI | 46 |
| 8 | BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA CHET TILIDAN O'ZLASHGAN SO'ZLARNI YOZILISHINI O'RGANISH USULLARI | 51 |
| 9 | TANA TILI VA UNING PSIXOLOGIYA BILAN BOG'LQLIGI | 56 |
| 10 | FIZIKA DARSLARIDA EKOLOGIK MAZMUNDAGI MASALALAR | 59 |
| 11 | FIZIKA DARSLARIDA EKOLOGIK MAZMUNDAGI MASALALARNI YECHISH | 62 |
| 12 | ОБРАЗОВАНИЕ Δ 0 -ИЗОБАР В ЦЕНТРАЛЬНЫХ р 12 С- И d 12 С- СОУДАРЕНИЯХ ПРИ 4.2 А ГэВ/С | 69 |
| 13 | UN MAHSULOTLARIGA YOD ELEMENTINI QÓSHISH USULLARI | 74 |
| 14 | BUXORO VILOYATI SHAROITIDA KARTOSHKA HOSILINI YIG'ISH VA SAQLASH | 77 |
| 15 | O'ZBEKİSTONDA İPAKCHILIKNING RIVOJLANISH TARIXI VA İSTİQBOLLARI | 80 |
| 16 | ОЦЕНКА РИСКОВ СТРАХОВЫХ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН | 84 |
| 17 | BIOGEN ELEMENTLARNING INSON TANASIGA TA'SIRI | 90 |
| 18 | THE STUDY OF IMPORTANT DRUGS IN THE FIELD OF MEDICINE THEIR COMPOSITION AND METHODS OF USE | 93 |